

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

“TASDIQLAYMAN”

**Buxoro davlat universitetining
Pedagogika instituti direktori**




_____**M. Daminov**
“ 2 ” may 2022 -yil

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA
INSTITUTI XODIM VA TALABALARI TOMONIDAN KORRUPSIYAVIY
HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETISHGA OG‘DIRISH
MAQSADIDA MUROJAAT QILISH HOLATLARI HAQIDA
XABARDOR QILISH TO‘G‘RISIDA**

NIZOM

Buxoro-2022

**Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti xodim va talabalari
tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish maqsadida
murojaat qilish holatlari haqida xabardor qilish to‘g‘risida
NIZOM**

Mazkur Nizom Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) va uning tarkibiy bo‘limlari xodim va talabalari orasida hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida har qanday korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga qiziqtirishga bo‘lgan urinishlarni aniqlash va ularga shu haqda ma‘lum bo‘lgan faktlar haqida xabar berish, ushbu xabarni ro‘yxatdan o‘tkazish va undagi ma‘lumotlar yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartiblarini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat'i nazar Institut va uning tarkibiy bo‘linmalari bilan mehnat va fuqarolik shartnomaviy munosabatlarida bo‘lgan barcha xodimlarga, shuningdek talabalarga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Institut va uning tarkibiy bo‘linmalari xodim, talaba, va boshqa shaxslar, agar ular ta'lim muassasasi xodim va talabalari xatti-harakatlarining qonunga muvofiqligi to‘g‘risida shubhaga borsalar, shuningdek, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etilishiga doir asosli va haqqoniy ma'lumot va faktlarga ega bo'lsalar, shuningdek ular bunday huquqbuzarlik sodir etilishiga og‘dirilsalar ular bu haqda Institut rahbariga yoki Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchisi – Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Komplayens-nazorat bo‘limi)ga bevosita yozma yoki tegishli aloqa kanallari orqali xabar berishlari shart.

3. Institut va uning tarkibiy bo‘linmalari xodim va talabalari tomonidan mazkur Nizom 2-bandi talablariga amal qilinmasligi ularga nisbatan Institut Ichki tartib qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga binoan intizomiy chora ko‘rish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II bob. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish

maqsadida murojaat qilish holatlari haqida xabardor qilish bilan bog'liq ishlarni tashkil etish

4. Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etishga og'dirish maqsadida murojaat qilish holatlari haqida xabardor qilish bilan bog'liq faoliyatni tashkil etish Komplayens-nazorat bo'limi xodimlari zimmasiga yuklatiladi.

5. Komplayens-nazorat bo'limi xodimlari korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida murojaat qilish holatlari haqida xabardor qilish yuzasidan o'z faoliyatlarini tashkil etganda Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va mazkur Nizom qoidalariga qat'iy rioya qilishlari lozim.

III bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish tartibi

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar quyidagi mas'ullar va tuzilmalar hamda aloqa kanallari orqali beriladi:

Institut direktoriga og'zaki hamda yozma shaklda;

Institutning (998) 65 226-10-97 "ishonch telefoni"ga;

Institutning buxdupi@buxdupi.uz elektron pochtasiga;

murojaatlar uchun <https://buxdupi.uz/> rasmiy veb-saytda joylashtirilgan shaklda;

Telegram tarmog'idagi direktorga murojaat yo'llash uchun [@buxdupi_murojaatbot](https://t.me/buxdupi_murojaatbot)ga;

Komplayens-nazorat bo'limining (998) 91 648-02-32 telefon raqamiga;

Komplayens-nazorat bo'limining https://t.me/BuxDUPI_compliance_control telegram kanaliga;

Komplayens-nazorat bo'limining buxdupi_anticor@mail.ru elektron pochtasiga;

Komplayens-nazorat bo'limining [@buxdupi_anticorbot](https://t.me/buxdupi_anticorbot) telegram botiga; to'g'ridan-to'g'ri huquqni muhofaza qilish organlariga.

7. Institut va uning tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ta'lim muassasalarining ichki hujjatlariga muvofiq xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi.

8. Umumiy foydalanishdagi ijtimoiy tarmoqlarda berilgan, anonim tarzida berilgan, shuningdek, korrupsiyaviy huquqbuzarlikni sodir etayotgan shaxs yoki shaxslar haqidagi ma'lumotlar aniq ko'rsatilmagan xabarlar huquqiy ahamiyat kasb etmaydi va ushbu ma'lumotlarga tegishli tartibda Institutning Odob-axloq kodeksi hamda ichki tartib qoidalari asosida baho beriladi.

IV bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslar huquqlarini himoya qilish

9. Institut va tarkibiy bo'linmalari o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida ta'lim muassasasining mansabdor shaxslari, xodim va talabalari hamda ularning yaqin qarindoshlari va kontragentlar tomonidan ta'lim muassasasi faoliyati

bilan bevosita bog'liq huquqbuzarliklar hamda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida ishonchli ma'lumot berilganida ushbu shaxslar haqidagi ma'lumotlarni maxfiylikni ta'minlaydilar (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

10. Institut va uning tarkibiy bo'linmalari o'z xodim va talabalarining qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar.

11. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi Institut lokal hujjatlari talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarni ta'qib qilinishiga qaratilgan harakatlarga, shu jumladan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish va ta'lim muassasasidan chetlashtirishga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydilar.

V bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabarga qo'yilgan talablar

12. Xabar yozma tarzda taqdim etilganda arizachi tomonidan imzolanib, Institut direktori va Komplayens-nazorat bo'limi rahbariga topshiriladi.

13. Arizada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:
ariza muallifining FISH, lavozimi, kursi, guruhi va yo'nalishi;
shaxsning murojaat qilishi uchun unga ma'lum bo'lgan holatlarning tavsifi (sana, joy, vaqt va boshqa holatlar);

Institut va uning tarkibiy bo'linmalarining barcha xodim va talabalarining pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya'ni pullar, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tusdagi xizmatlarni berishni talab qilishi yoki berishi, tovlamachilik qilish, va'da berish, pora olish va berish, pora olish va (yoki) berishda vositachilik qilish, shuningdek g'ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanishlari yuzasidan amalga oshirishlari kerak bo'lgan holatlar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etishi yuzasidan og'dirish turi va uni og'dirgan shaxs to'g'risidagi ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlar (FISH, lavozimi, kursi, guruhi, yo'nalishi);

korrupsiyaviy huquqbuzarlik taklifiga rad javobi (rozilik) bildirilganligi to'g'risidagi ma'lumot;

murojaat qilingan sana;

xabar bergan arizachi imzosi va telefon raqami.

14. Arizachi o'z murojaatiga asos bo'lgan ma'lumotlarni qo'shib taqdim etishi mumkin.

VI bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabarni rasmiylashtirish tartibi

15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi murojaat Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni qayd etish daftarida ro'yxatga olinadi.

16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni qayd etish daftari varaqlariga nomer qo'yilib, Institut direktori imzosi va muassasa muhri bilan tasdiqlanadi.

17. Arizachi yolg'on xabar berganlik hamda tuhmat qilganlik uchun belgilangan tartibda jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik mavjudligi haqida ogohlantirilishi bilan birga Nizomning 1-ilovasida ko'rsatilgan shaklga muvofiq tilxat yozadi hamda ushbu ariza murojaat qilingan kun "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni qayd etish daftari"ga mazkur Nizomning 2-ilovasida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va ariza nusxasiga arizaning qabul qilinganligi to'g'risidagi belgi qo'yilib arizachiga topshiriladi.

18. Elektron ko'rinishda berilgan xabarlar ham yuqoridagi tartibda yozma ariza mazmuni va shakliga qo'yilgan talablarga amal qilingan holda taqdim etiladi va mazkur ariza yuzasidan Komplayens-nazorat bo'limi xodimi arizachi bilan murojaat qilingan kun bog'lanib yolg'on xabar berganlik hamda tuhmat qilganlik uchun belgilangan tartibda jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik mavjudligi haqida ogohlantiradi, 1-ilovadagi tilxat shaklini yetkazadi va to'ldirilgan ma'lumotni qabul qiladi hamda darhol elektron ko'rinishdagi arizani "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni qayd etish" daftariga ushbu Nizomning 2-ilovasida belgilangan tartibda rasmiylashtiradi va arizaning qabul qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotni arizachiga yetkazadi.

19. Xabarlardagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bildirilgan ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi.

VII bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to'g'risida ma'lumotni mas'ullarga yetkazish va xizmat tekshiruvi o'tkazish tartibi hamda muddatlari

20. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan tegishincha Institut direktoriga zudlik bilan ma'lum qilinadi.

21. Ushbu ma'lumotlar qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmaga taqdim etiladi.

22. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar Institut direktori tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilishi natijasiga ko'ra quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

agar mazkur masala yuzasidan avval ham murojaat kelib tushgan bo'lib ushbu murojaatdagi holatlar o'z tasdig'ini topmagan bo'lsa, arizani rad etish to'g'risida;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarni huquqni muhofaza etuvchi organga taqdim etish to'g'risida.

23. Institut direktorining topshirig'iga ko'ra mas'ul tarkibiy tuzilma tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

24. Xabarda ko'rsatilgan ma'lumotlar yuzasidan Komplayens-nazorat bo'limi, mas'ul tarkibiy tuzilma tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlari mavjudligi aniqlanganda, bu haqda Institut direktoriga bir ish kuni davomida ma'lum qilinadi.

25. Xizmat tekshiruvi amalga oshirilishi jarayonida mas'ul tarkibiy tuzilma quyidagi huquqlarga ega:

xodim, talaba va boshqa shaxslar bilan suhbat o'tkazish;
xodim, talaba va boshqa shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish.

26. Ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

27. Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari Institut direktori tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

28. Xizmat tekshiruvi natijalari yuzasidan yozma xulosa tayyorlanib unda quyidagilar ko'rsatiladi:

taqdim etilgan ma'lumotlar yuzasidan o'rganish natijalari;

murojaatni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi asoslar; murojaat yuzasidan ko'rilgan ta'sir choralari;

murojaat yuzasidan aniqlangan sabab va sharoitlar yuzasidan amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar.

29. Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan xabarlarni ko'rib chiqish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanib arizachiga yuboriladi (taqdim etilgan aloqa ma'lumotlari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda).

Shuningdek, qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, aniqlangan holatlar to'g'risida bunday toifadagi huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish vakolatiga ega huquqni muhofaza etuvchi organlarga xabar beriladi.

30. Agar arizada keltirilgan xabarlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik belgilari mavjud emas deb hisoblansa, bu haqda arizachiga ma'lum qilinadi.

Ushbu holat arizachini vakolatli huquqni muhofaza etuvchi organlarga murojaat qilish huquqidan mahrum etmaydi.

31. Institut hamda uning tarkibiy bo'linmalari mazkur turdagi huquqbuzarliklar yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atishga yoxud ma'muriy javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjudligi yoki mavjud emasligiga baho bermaydi.

VIII bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish

32. Institutdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish haqiqatda korrupsiya fakti arizachi tomonidan taqdim etilgan dalil (audioyozuv, videoyozuv, sms xabar, foto va hokazo)ga asosan Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan o'rganilishi jarayonida shubha uyg'otmagan taqdirda yoki tegishli tartibda vakolatli sud va huquqni muhofaza etuvchi organlar tomonidan tasdiqlangandagina amalga oshiriladi.

33. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish to'g'risida Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan tegishincha Institut direktori nomiga tegishli tartibda taqdimnoma kiritiladi.

34. Rag'batlantirish miqdori har o'quv yilining boshida Institut Kengashi tomonidan tasdiqlanib, Institutning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

IX bob. Yakunlovchi qoida

35. Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Institut Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom Institut Kengashining 2022-yil 30-apreldagi 8-son yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

BuxDUPI

Buxoro davlat universitetining Pedagogika
instituti xodim va talabalari tomonidan
korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga
ogʻdirish maqsadida murojaat qilish holatlari
haqida xabardor qilish toʻgʻrisidagi Nizomga
1-ilova

TILXAT

Men, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berar ekanman, yolgʻon xabar berganlik hamda tuhmat qilganlik uchun belgilangan tartibda jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik mavjudligi haqida ogohlantirildim. Xabarimda jismoniy va yuridik shaxslarga oid tuhmat belgilari yoki yolgʻon ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgarlikka tortilishga roziman.

(sana)

(imzo)

(FISH)

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti xodim
va talabalari tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar
sodir etishga og‘dirish maqsadida murojaat qilish holatlari
haqida xabardor qilish to‘g‘risidagi Nizomga
2-ilova

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarni qayd etish
DAFTARI**

T/r	Arizachi F.I.Sh.	Arizani qisqacha mazmuni	Arizani qabul qilib olgan mas'ul shaxs F.I.Sh. va lavozimi	Yolg‘on xabar berganlik hamda tuhmat qilganlik uchun javobgarlik mavjudligi haqida ogohlantirilganligi	Ariza qabul qilib olingan sana	Arizachiga ariza qabul qilinganligi to‘g‘risidagi ariza nusxasining berilganligi